

## **O'QUV FAOLIYATIDA AXBOROTLARDAN FOYDALANISH.**



***Abdullayeva Saodat Mengbayevna***

*Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti assistenti*

**Annotatsiya.** Ushbu mavzuda quyidagi muammolar va ularning hal etish metodikasi va amaliyotga joriy etish va uning samaradorligi to‘la yoritib berilgan. Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida fanlarni o‘qitish sifatini oshirish, ta’lim jarayoniga zamonaviy o‘qitish metodikasini joriy etish, iqtidorli talabalarni ko‘paytirish, xalqaro miqyosda talabalarining o‘z o‘rniga ega bo‘lishi uchun maktab davridayoq o‘qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan keng foydalanishni talab etadi. SHu bois ushbu maqolada talabalarni o‘quv va hayotiy faoliyatida axborotlardan foydalanish hamda axborotlar bilan ishslash kompetensiyasini shakllantirishdan iborat. Axborotlashgan jamiyatda olgan bilimlarini hayotiy faoliyatları davomida qo‘llay olish darajasi jamiyat rivojini belgilaydi.

**Kalit so‘zlar:** axborot iste’molchilar, interpretatsiya qilish, imitatsiya, integratsiya, kompetensiya, kompetentlik.

**Kirish.** Mamlakatimizda fan, ta’lim, ishlab chiqarish sohalarida olib borilayotgan islohatlar natijasida ta’lim tizimida barcha fanlar qatori matematika fanining ham o‘quv-me’yoriy hujjatlari, moddiy-texnik bazasi yangilanmoqda, talabalarda yangi innovatsion intilish paydo bo‘lmoqda. O‘qitishning tayanch kompetensiyaviy texnologiyalariga asoslangan metodlarini tadbiq etish natijasida talabalarining fanga bo‘lgan qiziqishlari ortib, iqtisodiyotning real sektoriga malakali, raqobatbardosh kadrlar etib tarbiyalashga erishilmoqda. Ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarni axborot texnologiyasidan foydalanish va amaliy qo‘llay olishning metodik asoslarini rivojlantirish.

Axborotlar jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib, uni uzatish va qabul qilishning XXI asrdagi imkoniyatlari samarali ravishda o‘sib bormoqda. Axborot maydoni fan va ijtimoiy hayot taraqqiyotining muhim omiliga aylandi.

# Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari



Ijtimoiy taraqqiyot barcha sohalar rivojlanishida aks etib boradi. Xususan, ta'lim sohasi ham ijtimoiy hayotning bir qismi sifatida doimiy ravishda ijtimoiy hayot yutuqlarini o'zida aks ettiradi. Ta'limning zamon talablari asosida rivojlanib borishi fundamental o'zgarishlar, yangicha yondashuvlarni taqozo etadi. SHuning uchun axborotlardan samarali foydalanishning yo'llari va imkoniyatlarini topish ta'limning muhim vazifalaridan biri hisoblanib, ta'lim oluvchilarga axborotlarni o'zlashtirish, interpretatsiya qilish, qayta ishslash, ularning imitatsiyalarini yaratish, shu bilan birga, yangi g'oyalar asosida axborotlarni ishlab chiqish, o'zlashtirilgan axborotlarni integratsiya qilishga o'rgatishi, talabalarni o'quv va hayotiy faoliyatida axborotlardan foydalanish kompetentligini oshirishga xizmat qilishi lozim. Ko'p holatlarda o'zlashtirilgan axborotlar miqdori (hajmi) ta'lim samarasi sifatida qaralib, ta'lim natijalarini baholashda o'zlashtirilgan axborotlar miqdori hisobga olinadi. SHuni tahkidlab o'tish kerakki, axborotlashgan jamiyatning asosiy talabi o'zlashtirilgan axborotlarni tegishli sohalar hamda hayotiy faoliyatlar davomida qo'llay olish darajasi bilan belgilanadi. Bir qancha ilmiy tadqiqot ishlarida ham kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limda ta'limning natijasiga ahamiyat berilishi va bunda talaba tomonidan o'zlashtirilgan axborotlar hajmi emas, balki turli vaziyatlarda mazkur axborotlarni qo'llay olishiga e'tibor qaratilishi lozimligi ta'kidlab o'tilgan. Axborotlar jamiyat hayotida muayyan darajada ahamiyat kasb etib, xususan, ta'lim - tarbiya jarayonlarini boshqarishda asosiy manba bo'lib hisoblanadi, chunki ular ob'ektdan olingan axborotlarni tizimlarga (qism tizimlarga) ajratish va qayta ishslash hamda kerakli maqsadlar bo'yicha uzatish algoritmlarini amalda joriy etishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Jahon sivilizatsiyasining axborot maydonida, jamiyatning har bir ahzosi, o'zining kundalik faoliyatida, uzlusiz ravishda axborotlardan foydalanadi. Yahni, jamiyatning har bir ahzosi axborot iste'molchisi hisoblanadi. Axborot iste'molchisi o'z ehtiyojini qondirish (bilimlarni oshirish, ta'lim olish va h.k.) maqsadida axborotga muhtoj, uni izlovchi, oluvchi shaxs va shaxslar. Ta'lim jarayonida shu bilan birga, kundalik faoliyatlar davomida talabalar axborotlarning

# Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari



faol iste'molchisi sifatida o'z o'quv faoliyati jarayonida zarur axborotlarni o'zlashtirib boradi. Axborotlardan samarali foydalanishning asosini axborotlar mazmuni va mohiyatini tushunish tashkil etadi. Axborotlar mazmunini tushunish orqali darslarga qiziqish, yangi bilimlarni o'zlashtirib borishga intilish saqlanib qoladi.

Ta'lim - tarbiya ishlari jarayoni yangi elektron resurslari – rasmiy veb-saytlar, elektron formatdagi adabiyotlar, audio va video materiallar, o'rgatuvchi kompyuter dasturlarining rivojlanishi jarayoni bilan uyg'unlashib bormoqda. Bu vaziyatda ta'lim-tarbiya jarayonlari ko'proq talabaning ichki imkoniyatlari, intellektual salohiyati, axborotni qabul qilish va o'zlashtirish qobiliyatlariga bevosita bog'liq bo'lmoqda. Tarmoqlardan axborotlarni topish uchun web-brauzerlar, ma'lumotlar bazasini ishlatish, axborot-izlanishli va axborot-mahlumotnomali tizimlardan, avtomatlashtirilgan axborot resurs markazlardan, elektron jurnallardan foydalanish talabalarga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: mustaqil ishslash: masalani qo'yish, izlanish, tahlil, mahlumotni qayta ishslash, vaqt limitini belgilash, o'z-o'zini nazorat qilish; internet tarmog'idan maqsadli foydalanish; o'qitish jarayonini individuallashtirish va darajalashtirish; xatolarni o'rganish vositasida nazoratni amalga oshirish; talabalarning o'quv faoliyati jarayonida o'z-o'zini nazorat qilishi va mavjud xatolarni tuzatishi; ko'p vaqt va mehnat talab etadigan, mayda hisoblash ishlarini kompyuterda bajarish hisobiga, o'quv vaqtini uzaytirish; o'rganilayotgan jarayon yoki hodisalarini modellashtirish; kompyuterda muayyan daraja yoki sinovlarni tashkil etish asosida laboratoriya ishlarini olib borish; turli muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish malakasini shakllantirish; muayyan turdag'i fikrlash qobiliyatini (masalan, ko'rgazmali-obrazli va nazariy) rivojlantirish; ta'lim olishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish (masalan, dasturga tasviriy vositalar yoki o'yin vaziyatlarini kiritish yo'li bilan).

Fan sohalari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlariga oid axborotlar bilan ishlay olish ta'lim oluvchilarda axborotlar bilan ishlay olish kompetentsiyasining tarkib topganligini talab qiladi. Fan sohalariga oid o'quv axborotlarida real voqe-



hodisalar va dalillar aks etadi. Fan sohalari yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlariga oid axborotlarning ta'lim jarayoniga tadbiq etilishi muhim. Bu talabalarning fanga oid mahlumotlar bazasiga ega bo'lish va ulardan o'quv faoliyati davomida axborot sifatida foydalana olish imkonini beradi. Fan va ta'limga oid axborotlar deganda barcha ilmiy-texnik, ilmiy ta'limiy hamda ixtiro va patentlarga oid hujjatlar nazarda tutiladi. Fan va ta'limga oid axborotlarni uzlusiz ta'limga joriy qilishda o'quvchilar yosh xususiyatiga mosligi, fan tarmog'iga mansubliliqi, yaxlitligi va hajmi, ulardan foydalana olish imkoniyatlari, axborotning bahosi (iqtisodiy, ijtimoiy, xavfsizlik nuqtai nazaridan qiymatlari) hisobga olinadi.

Zamonaviy ta'limni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlaridan biri bo'lib, axborot texnologiyalari g'oyalari va ilg'or pedagogik g'oyalar va yondashuvlarning bir-biriga kirib borishi hisoblanadi. Ta'lim berishni zarur bo'lgan mahorat va ko'nikmalarni ishlab chiqish jarayoni sifatida qarash ham uncha to'g'ri bo'lmaydi.

O'qituvchining faoliyati uning axborotlardan xabardorligi va axborotlardan samarali foydalanish qobiliyatiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lmoqda. Zamonaviy mutaxassis axborot oqimlarida erkin yo'nalish olishi uchun kompyuterlar, telekommunikatsiya va axborotning boshqa vositalari yordamida axborotlarni olishni, qayta ishlashni va ulardan foydalanishni bilishi lozim. Mutaxassisning zarur bo'lgan axborot madaniyat darajasini ta'minlash, faqatgina bitta o'quv fanining maqsadi bo'lib qolmasligi lozim. Zamonaviy axborot texnologiyalarini barcha o'quv fanlariga tatbiq etish lozim va bu holat o'qituvchilarning mahlum bir kasbiy tayyorgarligini, axborot texnologiyalarining imkoniyati bilan tanishganligini, ushbu imkoniyatlardan o'zining ilmiy va amaliy faoliyatida foydalana olishini talab qiladi. Ushbu holat juda dolzarb va pedagogik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi, chunki talabalar o'quv mashg'ulotlari jarayonida, ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlari va ustunliklarini o'zlarida sinab ko'rishadi.



**Xulosa.** Mavzu natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati matematika o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning hozirgi kundagi holati tahlil etilishi bilan izohlanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Abdullayeva S.M. “Ta’lim texnologiyasini yangilash - zamon talabi”. Pedagogika, 2023, 4-son.
- 2.Abdullayeva S.M. O‘quv faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanish. Лучшие интеллектуальные исследования международный научный электронный журнал, ЧАСТЬ-9 ТОМ-2, Ноябрь - 2023 год
- 3.Abdullayeva S.M. “Ta’limda kompetensiyaviy yondoshuvni qo’llash texnologiyasi”. INTERNATIONAL CONFERENCE SCIENCE AND EDUCATION. 2021 may. 28-29 b
- 4.Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan, 2009.145 b.
- 5.Abdullayeva S.M, Payanova F. “Ta’lim tizimida axborot texnologiyasining o'rni”. Zamonaviy ta’lim va tarbiya: muammolar, yechimlar va rivojlanish istiqbollari. Respublika ilmiy anjumani 2021. 251-254 бет
- 6.Egamberdiyev R. O‘., M. M. Alimov va boshqalar muallifligidagi “Axborot texnologiyalari” darslik, Toshkent, 2022.
- 7.Rashidov M.X, “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asoslari” risola, 2021 y.
- 8.Sh.A. Mengliyev, O.A. Abdug‘aniev, S.Q. Shonazarov, D. Sh. To‘rayev “Python dasturlash tili”, Termiz-2021